

№7, 2022 y. 25 fevral

Uzumchilik va vinochilikda
klasterlar

DAYJEST

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi
Ilmiy-texnik axborot markazi

Toshkent-2022



"Uzumchilik bu – xalqimizning asrlar davomidagi milliy dehqonchilik madaniyati, qadriyati, g‘ururi va daromad manbai hisoblanadi. Uzum xalqimizning turmush tarzi va urf-odatlari bilan bevosita bog‘lanib ketgan"

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Sh.M. Mirziyoyev*

**«Uzumchilik va vinochilikda klasterlar»
dayjesti. - T.: 2022. 18 b.**

«Uzumchilik va vinochilikda klasterlar» dayjesti O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Ilmiy-texnik axborot markazi tomonidan tayyorlangan.

Mualliflar jamoasi:

Abduraxmonov I.Y.
Turdikulova Sh.O‘.
Abduvaliyev A.A.
Musayeva R.A.
Barbu G.F.

Texnik muharrir:

Rayimjonov X.G‘.

© O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Ilmiy-texnik axborot markazi , 2022 y.

Uzumchilik va vinochilikda klasterlar



Zamonaviy jahon amaliyotida agrosanoat klasterlarini shakllantirish xalqaro bozorda samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bunday tendensiya tovarlarga muomila xarajatlarini kamaytirish, funksiyalarning takrorlanishini istisno etish va yanada keng va har tomonlama

integratsiya hisobiga ishtirokchilarning har biri uchun umumiy sinergetik ta'sir – o'zaro aloqaning yuzaga kelgan usullaridan klasterlarning bir qator afzal farqlari bilan shartlangan [1].

Ishlab chiqarish klasterining tashkiliy tuzilmasi ikki turdagi korxonalaridan iborat:

- 1) yadro – asosiy ishlab chiqaruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi korxonalar;
- 2) yo'ldoshlar - klaster yadro korxonalari uchun qo'shimcha tovarlar, ishlar va xizmatlarni yetkazib beruvchilar.

Xususan, jahon vinochilik tarmog'i favoritlari orasida ilgari bo'lmagan mamlakatlarning mahsulotlari (AQSh, Avstraliya, Chili, Argentina, Janubiy Afrika)— Yangi dunyo vinolari (NewWorldWines)ning global bozorlarga tez kirib borish tajribasi qiziq.



Jahon bozorida ularning jiddiy ulushni muvaffaqiyatli qo'lga kiritishi asosan o'z mamlakati hududida tarmoqni tashkil etish uchun klaster yondashuvidan foydalanish, shuningdek, vinochilik klasterlarining ushbu yondashuvi natijasida hosil bo'lgan faol yagona marketing siyosati bilan ta'minlanadi [2].



Kaliforniyaning vinochilik klasteri

Klaster tizimi tufayli Kaliforniya kattaligi bo'yicha 3-vino bozoriga aylandi.

Kaliforniyada, Tinch okeani sohilidagi Amerika Qo'shma Shtatlari shu nomli shtatining uzumchilik-vinochilik hududida, mamlakatning taxminan 90% uzum va 80% dan ortiq vinochilik mahsuloti ishlab chiqariladi [3].


Uzumzorlar maydoni 299 ming gektarni tashkil etadi. Kaliforniya uzum plantatsiyalarida 40,7%, kishmish-mayiz, 11,6% - xo'raki va 47,7%.texnik navlar egallaydi.



Kaliforniya uzumchiligida mexanizatsiyalash va kimyolashtirish keng qo'llaniladi. Kaliforniyada: oq xo'raki, desert, spirtli, Kaliforniya yoki Amerika shampani deb nomlangan ko'piklanadigan vino, shuningdek xeres vinosi ishlab chiqariladi.

1880 yildan beri Kaliforniyadagi Fresno shahrida Eksperimental uzumchilik stansiyasi mavjud bo'lib, unda joyida emlashlar yo'li bilan uzumzorlarni yaratish uchun yozgi emlashlarni qo'llash masalalari ishlab chiqilgan. Bu yerda bir qator uzum navlari, shu jumladan Kardinal navi ko'paytirilgan.

Kaliforniyaning vinochilik klasteri



1-jadval. Kaliforniya vinochilik klasteri

Kaliforniyaning vinochilik klasteri

Klasterda doimiy o'zaro aloqada ishlaydigan uzumzorlar (uzumchi) va vino zavodlaridan iborat yadro yaqqol namoyon bo'ladi.

Uzumzorlar katta ish beruvchilar hisoblanadi, ularda doimiy asosda 40 ming kishi ish bilan band bo'ladi, hosilning yig'imerimi davrida esa bu raqam mavsumiy ishchilar hisobiga ikki barobarga oshadi [4].



Klasterda sotish kanallari muhim rol o'ynaydi. Sotishning 3 ta asosiy kanallarini ajratib qo'rsatish mumkin.



Birinchidan, bu o'z ulgurji kompaniyalar. AQShda spirtli ichimliklarning sotuvi Alkogol, tamaki va o'q otish quroli bo'yicha agentlik (ATF) va shtat hukumatlari nomidan federal hukumat tomonidan qat'iy tartibga solinuvchi faoliyat hisoblanadi. Shu sababli bir qator shtatlarda spirtli ichimliklarning ulgurji savdosi faqat vakolatli kompaniyalar

uchun ruxsat etiladi. Shunga qaramay, ko'pchilik vino zavodlari o'z ulgurji kompaniyalariga ega, bu iste'molchiga brendlarning to'liq lineykasini yetkazib berish va supermarketlarda o'z vinolarining mavjudligini nazorat qilish imkonini beradi.

Ikkinchidan, bu yirik tarmoq savdogarlari bo'lib, vino mahsulotlarini sotish hajmining 30% gacha qismi ularning ulushiga to'g'ri keladi. **Uchinchidan**, bu yirik chakana sotuvchilar - WallMart kabi ana shunday supermarketlar. Qolgan sotuv kanallari unchalik katta hajmlarga ega emas: bu Internet bo'yicha savdo, vino butiklari, restoranlar.



Kaliforniyaning vinochilik klasteri

Klasterning ta'lim segmenti yaxshi rivojlangan va yirik davlat va nodavlat ta'lim muassasalari tomonidan taqdim etilgan. Eng mashhurlari sirasiga vinochilik fakulteti mavjud bo'lgan Kaliforniya universitetini kiritsa bo'ladi.



Yirik vino zavodlarining ko'pchiligi o'z malaka oshirish dasturlariga ega, Yevropa universitetlari va institutlari bilan tajriba almashish dasturlari faol qo'llaniladi. Klasterning ta'lim segmenti klasterning malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini to'liq qoplaydi.

Klasterning rivojlanish darajasini belgilovchi muhim mezon innovatsion faoliyatni moliyalashtirish hisoblanadi. Innovatsion faoliyat, birinchidan, klaster ishtirokchilari rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari haqida kelisha olganlari, ikkinchidan, ular moliyaviy jihatdan qarzni to'lay olishga qodirliklaridan dalolat beradi.



Misol uchun, Kaliforniya (AQSh) da vinochilik klasteri uchun shtatning qurg'oqchil iqlim sharoitida uzumzorlarni sug'orish tizimi innovatsion loyihaga aylandi.

Klasterning xarakterli xususiyati ko'p qutblilik hisoblanadi: unda turli ishtirokchilarning manfaatlarini aks ettiruvchi bir nechta tashkilotlar o'zaro aloqa qiladi va klasterning manfaatlariga xizmat qilish bo'yicha o'ziga xos "mehnat taqsimoti" kuzatiladi. Shunday qilib, Vino bozori bo'yicha kengashi marketing va reklama siyosatini muvofiqlashtirish bilan shug'ullanadi, Kaliforniya uzum ishlab chiqaruvchilari uyushmasi uzumzor egalarining manfaatlarini ilgari surish bilan mashg'ul bo'ladi, Kaliforniya vino instituti esa oq xo'raki va "no-name" (ommaviy) vino ishlab chiqaruvchi vino zavodlarining manfaatlarini aks ettiradi.

Chilining vino klasteri

Chilining vino klasteri mahsulotlarni birinchi navbatda Lotin Amerikasi mamlakatlariga, keyin esa o'z vinochilik korxonalari bo'lgan mamlakatlarga eksport qilishga mo'ljallangan holda yuzaga keldi. Mahsulotlarni eksport qilishga tanlangan yo'nalish avvaldan to'g'ri bo'lib chiqdi [5].

Klasterda hukmronlik qiluvchi vinochilik xo'jaliklari guruhidan iborat yadro ham yaqqol namoyon bo'lib turibdi. Ularning ulushiga ishlab chiqarishning 45%gacha qismi to'g'ri keladi. Biroq ularning ta'siri cheksiz emas, mustaqil ishlab chiqaruvchilarning manfaatlari davlat va jamoat tashkilotlari (uyushmalari) tomonidan himoya qilinadi.



Hukmronlik qiluvchi tarmoq kompaniyalarining yaqqol ta'siriga qaramasdan, jamoat tashkilotlari – uyushmalar muhim rol o'ynaydi. Uyushmalarining ta'siri va vakolatlari keng bo'lib, ular biznes, hukumat idoralari, ta'lim muassasalari va jamiyat aloqalarining muvaffaqiyatli mexanizmini o'zida


namoyon qiladi. Uyushmalar Chili vinochilik sanoatini barcha ishtirokchilarining manfaatlarini ifodalaydi va butun dunyo bo'ylab Chili vinolarini targ'ib qilish bo'yicha faol siyosatni olib boradi.

Vino ishlab chiqaruvchilar orasidagi klasterda mahsulotlarning narx darajasi bo'yicha yaqqol segmentlashtirish yo'q. Ko'pgina vinochilik xo'jaliklari mahsulot portfelida oddiy (oq xo'raki), biznes va premium segment vinolariga ega. Klasterda vino sifatining qat'iy standartlari o'rnatilgan, ularga muvofiq har qanday xo'jalik tomonidan har qanday toifadagi vinoni ishlab chiqarishda barcha me'yorlar va qoidalarga rioya qilish tamoyili bajarilishi kerak.


Klasterning ta'lim va ilmiy-tadqiqot segmenti yaxshi rivojlangan va taqdim etilgan. Mehnat zaxiralari va barcha darajadagi mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj qondirilgan, murakkab texnologik qurilmalar qismida import o'rnini bosish kursi qabul qilingan. Lotin Amerikasi mamlakatlari va dunyoning yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari bilan texnologik hamkorlik dasturlari faol rivojlanmoqda.

Chilining vino klasteri


Bundan tashqari, davlat vinochilik tarmog'ini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Hukumat tashkilotlari va idoralari bilan o'zaro hamkorlik Chilida vinochilik tarmog'i muvaffaqiyatli rivojlanishining kafolatiga aylandi. Vinochilik klasterining muvaffaqiyatli hamkorligiga ixtisoslashgan turistik marshrutlar, tarmoq OAVlarining rivojlanishi, vinochilikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash dasturlari misol bo'la oladi.



Chilining vino klasteri



Chilining vino klasteri



2-rasm. - Chili klasterining tarkibi

"Don vodiysi" vinochilik hududiy klasteri

Rostov viloyatida "Don vodiysi" hududiy vinochilik klasteri yaratilgan.



"Don vodiysi" – bu vinochilik, uzumchilik, vino- gastronomik turizmni rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot va ta'lim dasturlari, savdo infratuzilmasini rivojlantirish, vinochilik korxonalari uchun butlovchi qismlarni ishlab chiqarish kabi yo'nalishlarda faoliyatni amalga oshiruvchi Rostov viloyati yetakchi ilmiy-ta'lim, ishlab chiqarish, muhandislik va innovatsion-tatbiq etuvchi tashkilotlar va korxonalarining birlashmasi [6].

Klaster doirasida to'rtta loyiha faoliyat yuritadi. Birinchisi -texnologlar, qishloq xo'jaligi majmuasi mutaxassislari va seleksionerlarni tayyorlaydigan ilmiy-ta'lim loyihasi. Ikkinchi loyiha - "Don vodiysining vinolari" firma savdo tarmog'ini yaratish. Uchinchi loyiha - vino turizmini rivojlantirish. To'rtinchisi – ishlab chiqarish loyihasi bo'lib, unda nafaqat vinochilik tarmog'i vakillari, balki asbob-uskunalar va butlovchi qismlarni ishlab chiqaruvchi korxonalarining ishi ham kooperatsiya qilinadi [7].



Klasterning asosiy ixtisoslashuvi: oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish [8].

Klasterning maqomi: Rossiya iqtisodiy rivojlanish vazirligining kichik va o'rta tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha dastur doirasida klasteri rivojlantirish markazi tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Asosiy mahsulotlarning qisqacha tavsifi: uzumchilik va vinochilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va ishlab chiqarish.

Klaster ishtirokchilarini birlashtirish maqsadi: Rostov viloyati iqtisodiyotini rivojlantirishga hissa qo'shadigan uzumchilik va vinochilik tarmog'ida yuqori samarali import o'rnini bosuvchi kompleksni yaratish.

"Don vodiysi" vinochilik hududiy klasteri

Klasterni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari

Klasterni tashkiliy rivojlan-tirish va ishtirokchilar o'rtasida kooperatsiya aloqalarini kuchaytirish



Innovatsion salohiyat va tadqiqotlar va ishlanmalar sektorini rivojlantirish



Klaster ishtirokchilarining ishlab chiqarish salohiyatini rivojlanti-rish va mahsulotlar va xizmatlar-ning bozor ulushini kengaytirish



Kadrlar salohiyatini rivojlantirish



Umumiy brendni shakllantirish va klasterning taniqliligini oshirish




Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish



Hokimiyat idoralari bilan aloqalarni rivojlantirish

3-rasm. - Klasterni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari



Klaster ishtirokchilarini birlashtirishning maqsadlari

- Rostov viloyatida uzumchilik va vinochilikni faol rivojlantirish;
- xorijiy mahsulot importining o'rnini bosish va mahalliy mahsulotlarni eksport qilish bo'yicha innovatsion dasturlar va loyihalar orqali Rostov viloyati va Rossiya Federatsiyasining boshqa sub'ektlari iqtisodiyotini rivojlantirishda ishtirok etish;
- klaster ishtirokchilarining raqobatbardoshligini oshirish va hududiy iqtisodiyotning o'sishiga qaratilgan loyihalarni samarali amalga oshirish;
- hududiy, milliy va xalqaro miqyosdagi loyihalarni amalga oshirish uchun eng yaxshi ekspert resurslarini jalb qilish;
- istiqbolli ishlab chiqarish, muhandislik va boshqaruv texnologiyalari, eng yangi uskunalarni joriy etishga ko'maklashish;
- klaster ishtirokchilarining xalqaro bozorlarga kirishini osonlashtirish;
- klaster doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarni ro'yobga chiqarish uchun rossiyalik va xorijiy investitsiyalarni jalb etishga ko'maklashish;
- ichki va tashqi bozor iste'molchilarining talablarini qondirish [9].





O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Uzumchilikni rivojlantirishda klaster tizimini joriy etish, sohaga ilg'or texnologiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan O'zbekistonning 48 tumanida to'liq siklli uzum yetishtirish, quritish,

qadoqlash, qayta ishlash va tayyor mahsulotni ishlab chiqarish bilan uzumchilik va vinochilik klasterlarini yaratish rejalashtirilmoqda [10].

Buning uchun ixtisoslashgan tumanlarda ochiq tanlov asosida uzumzorlarni barpo etish uchun 156 ming gektar, ulardan 2021 yilda – 50 ming gektar maydon ajratiladi. Tanlovlarning g'oliblari ijara shartlari asosida yer oladilar. Shuningdek, aholining tomorqa uchastkalarida uzum bog'larini kengaytirishning yangi mexanizmini joriy etish rejalashtirilmoqda.



2022 yildan boshlab har ikki yilda bir marotaba uzumchilik yo'nalishida Eng yaxshi uzum navi", "Eng yaxshi intensiv tokzor", "Eng yaxshi mahalliy uzum navi" va "Eng yaxshi vino mahsuloti" kabi nominatsiyalarda o'tkaziladigan respublika ko'rik tanlovi ta'sis etiladi [11]. 2022 yil 1 yanvardan boshlab mahalliy ishlab chiqarilgan uzum va meva-rezavorlardan tayyorlangan tabiiy ravishda achitilgan tabiiy vino (etil spirti qo'shilmagan holda) va ko'piklanadigan vinoning 1 daliga aksiz solig'i 1 so'm etib belgilanadi.

"ShOXRUD" AJ to'liq ishlab chiqarish sikli bilan vinochilik klasteri

O'zbekistonda o'xshashi yo'q vinochilik klasteri Buxoro viloyatining Shofirkon tumanida ish boshlaydi. Loyiha tashabbuskori "ShOXRUD" AJ korxonasi hisoblanadi. Ishlab chiqarish doirasida xom ashyo –uzum yetishtiriladi, plantatsiya yonida esa vino ichimliklarini shisha idishlarga quyish amalga oshiriladi [12].



Buxoro viloyatida vinochilik klasterini yaratishning strategik maqsadi yuqori samarali import o'rnini bosuvchi kompleksni yaratishdan iborat bo'lib, uning natijasi mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi va ichki iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash hisoblanadi.



Vino zavodi O'zbekistonda mavjud bo'lmagan tubdan yangi texnologiyalardan foydalanadi. Seleksiyaviy vinochilik hisobiga yiliga taxminan 4 million shisha idishda mahsulot ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Kompaniya uzumni qayta ishlash va vinoni shisha idishlarga quyishdan boshlab tayyor mahsulotni qadoqlash va sotishgacha

bo'lgan to'liq sikl tamoyili bo'yicha ishlaydi. Bundan tashqari, loyiha doirasida 500 gektar tokzorlar kengaytirilib, shundan 300 gektari vinochilik navlari va 200 gektari mayiz uchun kishmish navlari bo'ladi.

Shuningdek, vino turizmini rivojlantirish maqsadida sayyohlik agentliklari bilan hamkorlikni tashkil etish rejalashtirilgan. Taxminlarga ko'ra, vinochilik markazining quvvati kuniga 20 ga yaqin turistik avtobusni qabul qilish imkonini beradi. Tayyor mahsulot va xomashyo eksportining kutilayotgan hajmi 2,5-4,0 million AQSh dollariga teng bo'ladi.



1. Национальные интересы: приоритеты и безопасность No 20 (209) 2013, стр.15 // <https://u.to/P4bTGw>
2. Кластеры как основа роста конкурентоспособности на мировых рынках: пример винодельческой отрасли // http://www.jourssa.ru/sites/all/files/volumes/2012_5/Vladimirov_Shersheva_2012_5.pdf
3. Регионы виноделия: Калифорния // <https://eniw.ru/california.htm>
4. Ю.Л. Владимиров, М.Ю. Шершева. Кластеры как основа роста конкурентоспособности на мировых рынках: пример винодельческой отрасли // http://www.jourssa.ru/sites/all/files/volumes/2012_5/Vladimirov_Shersheva_2012_5.pdf
5. Ю.Л.Владимиров. Анализ деятельности винодельческого кластера в Чили // <file:///C:/Users/E-MaxPCShop/Downloads/analiz-deyatelnosti-vinodelcheskogo-klastera-v-chili.pdf>
6. Территориальный винный кластер «Долина Дона» расширит состав участников // <http://old.donland.ru/news/Territorialnyjj-vinnyjj-klaster-Dolina-Dona-rasshirit-sostav-uchastnikov?pageid=92218&ItemID=75977&mid=83793>
7. Винный кластер "Долина Дона" пополнился еще пятью компаниями // <https://alcoexpert.ru/itnews/37385-vinnyj-klaster-dolina-dona-popolnilsya-eshhe-pyatyu-kompaniyami.html>
8. Деятельность территориального кластера Долина Дона // <https://dolinadona.com/deyatelnost-territorialnogo-klastera-dolina-dona.html>
9. Винный территориальный кластер «Долина Дона» // <https://map.cluster.hse.ru/cluster/163>
10. В Узбекистане появятся виноградарские и винодельческие кластеры // <https://kursiv.uz/news/otraslevye-temy/2021-08/v-uzbekistane-poyavyatsya-vinogradarskie-i-vinodelcheskie-klastery>
11. Будут созданы виноградарские и винодельческие кластеры // <https://news.mail.ru/economics/47345325/>
12. Уникальный винодельческий кластер с полным производственным циклом запустит АО "ШОХРУД" // <https://www.facebook.com/shohrud/posts/437077926865606>



Ўзбекистон Республикаси Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi
Ilmiy-texnik axborot markazi

Toshkent-2022